



SHIFOKOR

SAMARQAND DAVLAT
TIBBIYOT INSTITUTI
NASHRI

SO'ZI

GAZETA 1938 YILDAN "MEDITSINA FANI UCHUN" NOMI BILAN CHIQA BOSHLAGAN



TARQOQ SKLEROZ BO'YICHA TURKIY DAVLATLARNING IV XALQARO KONGRESSI

6-iyun kuni universitetda tarqoq skleroz bo'yicha turkiy davlatlarning IV xalqaro kongressi o'z ishini boshladi. Anjuman ishida Turkiya, Shimoliy Kipr, Rossiya Federatsiyasi, Ozarboyjon, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi, Tojikiston va mamlakatimizning olyi tibbiy o'quv yurtlari hamda yetakchi ilmiy-amaliy markazlarining mutaxassislari ishtirok etishdi.

Tarqoq skleroz kasalligining dolzARB muammolariga bag'ishlangan anjuman dastlab 2019 yilda Turkiyaning Gulxane universiteti meditsina fakultetida turkiy davlatlarning vakillari ishtirotida o'tkazilgan edi. Mazkur tadbirda kongressni har yili G'arbiy va O'rta Osiyo davlatlarining birida o'tkazishga kelishib olingan. Kongressni o'tkazishdan asosiy maqsad tarqoq skleroz kasalligining diagnostikasi, davolash va

reabilitatsiyasi borasida erishilgan yutuqlar, innovatsion yondashuvlar, mazkur kasallikka tegishli tibbiyotda mavjud muammoli holatlar va ularni yechish yo'llarini muhokama qilish, ilg'or texnologiyalarni qo'llash, xalqaro miqyosda nevrolog-olimlar muloqotini o'rnatish va rivojlantirishdan iborat.

Anjumanning ochilish marosimida O'zbekiston Respublikasi Sog'lioni saqlash vazirining birinchi o'rnbosari Amrillo Inoyatov,

Samarqand davlat tibbiyot universiteti rektori Jasur Rizayev, Tibbiyot bilimlari universiteti (Istanbul, Turkiya) rektori Erdöl Cevdet, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti rektori Botir Daminov, mazkur institut professori, Yevro-Osiyo Fanlar Akademiyasi muxbir-a'zosi Yoqutxon Majidova, Turkiyaning bir qator yetakchi nevrolog-olimlari, shu jumladan professor Demirkaya Şeref, professor Gülhane Eğitim Araştırma Hastanesi, professor Efendi Hüsnü va dotsent Feyzioğlu Aynur so'zga chiqib, mazkur xalqaro konferensiyanı tarqoq skleroz va boshqa nevrologik kasalliklarni davolashni takomillashtirishda, bu borada xalqaro aloqalar va olimlarning o'zaro muloqoti muhimligini e'tirof etishdi.

Anjuman ishi sessiyalar yig'ilishlarida davom etdi. Muhammalarda yetakchi nevropatolog, neyroreabilitolog, neyropsixolog, neyroreanimatolog, rentgen-radiolog olimlar, sog'lioni saqlash boshqarmalari boshliqlari, terapevtlar, allergologlar, akusher-ginekologlar, gastroenterologlar va boshqa tor soha mutaxassislari ishtirok etmoqda.

Kongressda tarqoq skleroz bo'yicha zamon talablariga javob beradigan neyroreabilitatsiya tadbirlari va nevrologik yordam ko'sratishni takomillashtirish, ixtisoslashtirilgan yordam turlarini kengaytirish, turli diagnostik usullardan foydalanish, tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilash kabi keng qamrovli masalalar muhokama etilmoqda. Bundan tashqari, irlsiy moyillikka ega bo'lgan tarqoq skleroz kasalligining muammolari bo'yicha ikki tomonlama davra suhbatlari, munozaralar, ommaviy axborot vositalari uchun brifinglar o'tkazish rejalashtirilgan.

Tarqoq skleroz bo'yicha turkiy davlatlarning IV xalqaro kongressi 10 iyungacha davom etdi. Yakuniy sessiya Toshkent shahrida o'tkaziladi.

Rektor an'anaviy xalq tabobati Forumida nutq so'zladi

O'zbekiston Respublikasining Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga (ShHT) raisligi doirasida 7 iyun kuni Toshkentda "An'anaviy tibbiyotning zamonaviy sog'lioni saqlash tizimlariga integratsiyasi" mavzusida ShHTga a'zo davlatlarning an'anaviy tibbiyot bo'yicha forumi bo'lib o'tdi.



Mazkur gibriddagi tadbirda ShHTga a'zo davlatlar sog'lioni saqlash vazirlari, ilmiy hamjamiyat vakillari, zamonaviy va an'anaviy (xalq) tibbiyot, reabilitatsiya, farmatsevtika va eksperimental tibbiyot sohalarining yetakchi mutaxassislari ishtirok etishdi.

Shanxay hamkorlik tashkilotining an'anaviy tibbiyot bo'yicha yuqori martabali Forumini O'zbekiston Respublikasi sog'lioni saqlash vaziri Behzod Musayev kirish so'zi bilan ochdi. Behzod Anvarovich o'z nutqida xalq tabobatining zamonaviy sog'lioni saqlash sohalar uchun ahamiyati, uni JSST dasturlari doirasida rivojlantirish bo'yicha xalqaro tajribaga atroficha baho berdi hamda mamlakatimiz rahbariyatining respublikada xalq tabobatining rivojlantirish borasidagi sa'y-harakatlarni ta'kidlab o'tdilar. So'zga chiqqan boshqa nufuzli mehnmonlar

saqlash va tibbiy ta'lim sohasidagi integratsiyasiga bag'ishlangan ma'rizada J.Rizayev an'anaviy tibbiyotning tarixiy evolyutsiyasi va uning hozirgi holati, Sharqning buyuk allomalari va Ibn Sinoning an'anaviy tibbiyotni shakllantirishdagi o'mi, an'anaviy tibbiyotning dolzarbli haqida batasifil ma'lumot berib o'tdilar, ilmiy tibbiyot sohasidagi xalq, an'anaviy va zamonaviy tibbiyotning ijobji tajribasini birlashtirgan integral tibbiyot, "xalq tabobati" yo'nalişidagi mutaxassisliklarni ishlab chiqish va O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimiga joriy yetish jarayonlarini aytib o'tdilar. Rektorni chiqishi Forum mezbonlari va ishtirokchilari tomonidan yuqori baholandi.

8-iyun kuni Toshkentda ShHTga a'zo davlatlari Sog'lioni saqlash vazirlarining beshinchisi yig'ilishi ham bo'lib o'tdi.



Xorijlik hamkorlar bilan imzolangan ko'plab kelishuvlar asosida, hozirgi kunda Samarqand davlat tibbiyot universitetida akademik mobillik dasturlari bo'yicha xorijlik hamkasblarimizni kelib olyigho talabalariga reja asosida dars o'tishlari muntazam ravishda yo'liga qo'yilgan.

2022 yil 27 may kuni Tibbiy pedagogika va olyi hamshiralik ishi fakulteti "Fizika, biofizika va tibbiy fizika" kafedrasida akademik mobillik doirasida Rossiyanı bioinformatika instituti ilmiy xodimi, PhD Aleksandr Ilin tomonidan Xalqaro ta'lım fakulteti talabalariga ingliz tilida "Tibbiyotda biofizikani fani", "IT texnologiyalarni roli va hozirgi globallashuv davrida zamonaviy texnologiyalarni o'rni"ga bag'iishlangan qiziqarli mahorat darsini o'tkazdi.

2022-yil 23-28 may kunlari Turkiyaning Sog'lik bilimlari universiteti umumiy tibbiyot fakulteti, tibbiy farmakologiya kafedrasida xodimi-doktor Nurdan Tekin universitetimizning farmakologiya va klinik farmakologiya kafedrasida xodimlari, magistr — rezidentlari va talabalarga "Dori vositalarini ishlab chiqarishning dolzorb masalalari" mavzusida seminar, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni olib bordi. Ushbu o'tilgan darslar barcha professor-o'qituvchilar va talabalarda katta taassurot qoldirdi.

23-28-may kunlari Turkiyaning mazkur universiteti umumiy tibbiyot fakulteti, tez tibbiy

yordam kafedrasi mudiri-doktor Oguzxan Bol anesteziologiya va reanimatologiya kafedrasi xodimlari, magistr — rezidentlari va talabalarga "Tez ketma-ketligidagi intubatsiya: nafas olish yo'llarining o'tkazuvchanligini nazorat qilishda eng samarali vosita" mavzusida seminar, kalendar-tematik reja asosida talabalarga ma'ruza o'qidi va amaliy mashg'ulotlarni olib bordi. Mashg'ulot yakunida qizg'in bahs bo'lib o'tdi va talabalar o'zlarining qiziqitrgan savollariga javob oldilar.

Universitetga 20-21 may kunlari tashrif buyurgan RF Boshqird davlat tibbiyot universiteti "Falsafa" kafedrasida dotsenti Olesya Afanaseva "Ijtimoiy va gumanitar fanlar" kafedrasi Xalqaro ta'lım fakulteti stomatologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga kalendar-tematik reja asosida "Filosofiya" fanidan ma'ruza va seminar darslarini o'tkazdi. Mehmon yangi o'quv binoni moddiy-teknik bazasi, tarix muzeysi, o'quv xonalari va laboratoriyalari bilan tanishib yaratilgan shart-sharoitlarga yuksak baholarni berdi.

«OG'IZ BO'SHLIG'I JARROHLIGI VA DENTAL IMPLANTOLOGIYA»

KAFEDRASI OCHILISHI O'TKAZILDI

Universitet rahbariyatini tashabbusi bilan "Og'iz bo'shlig'i jarrohligi va dental implantologiya" kafedrasi kapital qayta qurishdan chiqarildi va 28-may kuni mazkur kafedrasi tantanali ochilishi bo'lib o'tdi.

Yangilangan kafedraning tantanali ochilishida universitet rektori Jasur Rizaev nutq so'zlab, kafedralar moddiy-teknik ta'minotini kuchaytirish va o'quv jarayoni sifat darajasini doimiy ravishda yuksaltirish, talabalar va professor-o'qituvchilar samarali faoliyat yuritishlari uchun munosib shart-sharoitlar yaratish eng ustuvor vazifa ekanligini ta'kidlab o'tdi. So'z olgan kafedra xodimlari va talabalar universitet rahbariyatiga yaratilgan sharoitlar uchun o'z minnatdorchiliklarini bildirib o'tdilar.

Ta'kidlash lozim, kapital ta'mirlashdan so'ng kafedra binosi zamonaviy ko'rinishga keldi. Kafedra binosi o'quv-klinik bazaga aylantirildi. Kafedrada 5 ta davolash xonasi, rentgen xonasi, 7 o'quv xonasi, 48 kishiga mo'ljallangan ma'ruza xonalari tashkil etildi. Davolash xonalari esa eng oxirgi modeldagi zamonaviy tibbiyot uskunalari bilan jinoxlandi.



4-iyun kuni universitetda "Stomatologik kasalliklarni davolashda innovatsion yondashuv" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi. Ilmiy anjumanda universitetga tashrifbuyurgan rossiyalik yetakchi stomatolog-olimlar, amaliyotchilar, universitet talabalari va o'qituvchilar ishtirot etdilar.

"STOMATOLOGIK kasalliklarni davolashda INNOVATSION YONDASHUV"



Xalqaro konferensiyanı universitet stomatologiya fakulteti dekani A.Axmedov ochar ekan, muhokama qilinadigan masalalarni mintaqada stomatologiyani fan va amaliyot sifatida yanada takomillashtirishda dolzarbigini ta'kidladi. Forumda tibbiyot fanlari doktori, professor Olga Bekjanova, TDSI "Terapevtik stomatologiya" fakulteti (Toshkent, O'zbekiston) "Mukozit va periimplantit. Tish implantatsiyasining bevosita va uzoq muddatli asoratlari rivojlanishining individual prognosi"; Aleksandr Mitronin, tibbiyot fanlari doktori, professor, stomatologiya fakulteti dekani, A.Evdokimov nomidagi Moskva davlat tibbiyot universitetining kariesologiya va endodontiya kafedrasi mudiri (Moskva, Rossiya) "Progressiv endodontiya, an'anaviy muammolarning zamonaviy yechimlari"; Malkan Amxadova, tibbiyot fanlari doktori, professor, jarrohlik stomatologiyasi va implantologiya kafedrasi mudiri, VMOF MONIKI (Moskva, Rossiya) "Ambulator stomatolog qabulida onkologik ogohlantirish va onkoskrining" va Olga Gileva, tibbiyot fanlari doktori, E.Vagner nomidagi PSMU Terapevtik stomatologiya va stomatologik kasalliklar propedevtikasi kafedrasi mudiri (Perm, Rossiya) "Konservativ va profilaktik stomatologiyaning asosiy tendensiyalari" mavzularida ma'ruzalar qildilar.

Ma'ruzalardan so'ng universitet talabalari va xodimlarining faol ishtirokida muhokamalar bo'lib o'tdi.

Anjuman so'ngida barcha ma'ruzachilarga esdalik sovg'alari topshirildi va ishtirokchilar bilan birgalikda surat olindi.

Shuningdek, mehmonlar universitetning yangi o'quv binosida bo'lib, o'quv va laboratoriya mashg'ulotlarni o'tkazish uchun yaratilgan imkoniyatlar hamda universitet tarixi muzeysi bilan tanishib chiqdilar.

IRSIY KASALLIKLAR BO`YICHA GENETIK LABORATORIYA

10-iyun kuni Samarqand viloyati Urgut tumani innovatsion hududida irsiy kasalliklarga barvaqt tashxis qo`yish usullarini takomillashtirish uchun O`zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan moliyalashtirilgan "Irsiy kasalliklarni aniqlaydigan genetik laboratoriysi startap loyihasi"ning ochilish marosimi bo`lib o`tdi.



Ochilish marosimida tuman hokimi o`rnibosari Asqr Eshonqulov, universitetimiz rektori Jasur Rizayev, Samarqand viloyat sog`liqni saqlash boshqarmasi boshlig`ini birinchi o`rnibosari Suxrob Zayniyev, viloyat skrining markazi direktori Gulnora Eltazarova hamda Samarqand viloyati Innovatsion rivojlanish boshqarmasi xodimi Sardor

Xayrullaevlar so`zga chiqib, tadbir ishtiroychilarini yangi innovatsion molekular genetik laboratoriya tashkil qilinayotganligi munosabati bilan tabrikladı.

Bugungi kunda dunyoda har 100 boladan 5-6 nafari genetik kasallik bilan tug`iladi va bu nuqsonlar bolaning intellektual rivojlanishidagi buzilishlar bilan o`tdi. Ularning 5-6 foizi birinchi marta paydo bo`lgan yoki otanonadan biridan o`tgani irsiy kasalliklar ekanligi aniqlangan.

Tadbir ishtiroychilarini laboratoriyaning mayjud 7 ta xona va ulardagi mavjud asbob-uskunalar ko`zdan kechirdilar. Loyiha tashabbuskori

— "GENMEDICAL" MChJ rahbari, SamDTU 1-son otorinolaringologiya kafedrasи mudiri t.f.d. Nilyufar Xushvakova tomonidan laboratoriya xizmatini tashkil etish ishlari boshlab yuborildi. Jumladan, molekular genetika laboratoriya uskunalarini va dasturiy mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar bilan muzokaralar olib borilib, kerakli jihozlar Rossiya, Ispaniya hamda Germaniya davlatlaridan keltirilgan asbob-uskunalar yordamida tahlillar o`tkazish uchun mo`ljallangan PZR apparatlari ishga tushirildi. Loyiha doirasida dastlab 5 ta ish o`rni yaratilishi va kelgusida ushbu ko`rsatkich 2-3 barobarga ko`payishi ta`kidlandi. Innovatsion laboratoriya nafaqat Urgut tumani, balki butun viloyat miyosida, qolaversa respublika miyosidagi irsiy kasalliklarni barvaqt oldini olish, tibbiy genetika rivojlanishiga o`zining munosib hissasini qo`shishi alohida ta`kidlandi.

Laboratoriya huddillardagi bemorlarga maslahat berish uchun yetakchi xorijiy va mahalliy tibbiyot markazlari, klinikalari bilan hamkorlik qilish bo`yicha ham amaliy ishlar amalga oshirilmoqda.

XALQARO AKADEMİK MOBILLIK AMALIYOTI RYAZANDA

Bugungi kunda universitetda olib borilayotgan sa'y-harakatlar olyi ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan bo`lib, uning eng muhim omillaridan biri – bu talabalar, tadqiqotchilar hamda professor-o`qituvchilarning akademik mobilligini amalga oshirishdir.

Universitetimizda xalqaro almashinuv orgali, dunyoning boshqa mamlakatlardagi OTMda olib borilayotgan ta'lim tizimini o`rganish, o`zaro solishtirish, ulardagи muhim jihatlarini o`zlashtirish va amalda joriy etish orqali kadrlar tayyorlashda sifat va samadorlikka erishish maqsadida dastur ishlab chiqilgan. Ushbu dastur yuzasidan universitetimizning bir guruh professor- o`qituvchilaridan tashkil topgan 6 nafar delegatsiya a`zolari 10-23 may kunlari, Rossiya Federatsiyasining I.P.Pavlov nomidagi Ryazan davlat meditsina universitetida bo`lib, akademik mobillik yuzasidan tajriba almashishga muvaffaq bo`lishdi. Ularni RyazDMUning tarbiyaviy va xalqaro munosabatlar bo`yicha prorektori M.Gordova hamda bo`lim boshlig`i Ye.Dementevalar iliq kutib olishdi va kelajakdagи rejalar yuzasidan suhbat o`tkazildi.

Tashrif davomida delegatsiya a`zolari RyazDMUning «Urologiya», «Akusherlik va ginekologiya», «Dermatovenerologiya», «Mikrobiologiya» hamda «Umumiy gigiyena va ekologiya» kafedralarining faoliyatlarini bilan yaqdandan tanishib, o`zaro tajriba almashinildi. Shuningdek universitetning «Anatomiya» va «Topografik anatomiya» kafedralarida yaratilgan zamonaviy shart-sharoitlar, ularning qoshida tashkil etilgan muzey, markaziy bibliotekada mustaqil ta'lim olayotgan talabalar hamda «Simulyatsion markazi»da talabalar va umumiy amaliyot shifokorlarini akkreditatsiyadan o`tkazish borasida olib borilayotgan amaliy ishlar delegatsiya a`zolardan katta taassurotlar qoldirdi. Ayniqsa, universitetning «Urologiya», «Akusherlik va ginekologiya» kafedralari joylashgan klinik bazalarida, zamonaviy innovatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirilayotgan diagnostika va davolash ishlari, talabalar egallagan nazariy bilim va ko`nikmalarini bevosita amaliyot bilan uyg`unlashuviga erishish orqali, malakali kadrlar tayyorlash borasida ham muhim zamin yaratilganligining guvohi bo`lishdi. Delegatsiya a`zolari RyazDTUda tahsil olayotgan talabalarga ma`ruzalar o`qish, amaliy mashg`ulotlar olib borish

bilan birga yakuniy imtihon topshirish jarayonlarida ham ishtiroy etishdi. Shuni ta`kidlash lozimki, hozirgi kunda talabalarda mustaqil bilim olish malakasi kundan-kunga shakllanib borayotganligi o`qituvchilar tomonidan e`tirop etildi, ayniqsa xorijiy talabalarida (bu ularda muktabgacha yoshidan boshlab shakllantiriladi) bu yaqqol ko`rinib turibdi.

Yoshlarni kasbga yo`naltirish borasida RyazDMUda o`tkazilgan «Ochiq eshiklar kuni» tadbirida ishtiroy etgan delegatsiya a`zolari, har bir fakultetning tarixi, faoliyati, qo`nga kiritgan yutuqlari va kelajakdagи rejalar bilan ham tanishishga muyassar bo`lishdi. Ushbu tadbirida abituriyentlikka talabgor yoshlar bilan bir qatorda, muktabda tahsil olayotgan 5-sinf o`quvchilaridan tortib, to meditsina texnikuming bitiruvchilarigacha bo`lgan 600ga yaqin yoshlarning o`z ota-onalari bilan birlgilikda ishtiroy etishi, ularning farzandlari taqdiriga befarq emasliklaridan dalolat beradi va kelajakda to`g`ri yo`ni tanlashlariga bevosita ko`maklashadi. Bu albatta tahsinga sazovordir.

Delegatsiya a`zolari RyazDTUning rektori, professor Roman Yevgenevich Kalinin qabulida bo`lishdi. Bunda R.Ye.Kalinin mehmonlarni SamDTIga Universitet maqomi berilganligi bilan tabriklab, Samarqand davlat meditsina universiteti rektori, professor Jasur Alimjanovich Rizayevga bo`lgan o`zining yuksak hurmati, tabrgi va hamkorlik yuzasidan olib borilayotgan ishlar borasidan chuqur minnatdorchiligini yetkazishni so`radi.

Ushbu uchrashevdu delegatsiya a`zolarining har biri bilan tashrif davomida o`z taassurotlari haqida qizg`in suhbat olib borildi. Bunda ikki universitet o`rtasida tuzilgan memorandum asosida kelajakdagи o`quv, o`quv-uslubiy, ilmiy-amaliy izlanishlar borasida istiqbolli rejalarini amalga oshirish yuzasidan bir qator taklif va istaklar bildirildi. Professor R.Ye.Kalinin mobillik yuzasidan olib borilayotgan ishlar kelajakda oliv



ta`lim muassasalarining tuzilmalarini, davlat ta`lim standartlari, o`quv rejalarini mukammallashtirishga zamin yaratishini ta`kidladi. Duyoda bugungi kunda ingliz tilida ta`lim beruvchi olyi ta`lim muassasalariga ehtiyoj oshib borayotganligi tutfisi AQSH universitetlari ularda ta`lim olayotgan xorijiy talabalar soni bo`yicha dunyoda yetakchi o`rinlardan birini egallaganligi haqida gapirdi. Talabalarni ta`lim olish uchun jalb etishda albatta olyi ta`lim muassasalarining xalqaro reytingda tutgan o`mi katta ahamiyatga egaligi, bu esa bevosita OTMlarda faoliyat olib borayotgan har bir professor- o`qituvchilarning ilmiy-amaliy yetuklik darajasiga bog`liqligini ta`kidladi.

Dam olish kunlari delegatsiya a`zolarining maroqli, madaniy hordi chiqarishlari uchun RyazDMU ma`muriyati tomonidan qadimiy Ryazan shahrinining diqqatiga sazovor bo`lgan joylari-Ryazan Kreml, I.P.Pojalostin nomidagi Ryazan davlat san`at muzeysi, Ryazan davlat musiqiy-drama teatri, Oka daryosi bo`ylab teploxforda sayr yuhshtirildi. Ayniqsa, shoir Sergey Aleksandrovich Yesenin tug`ilib o`sgan Konstantinovo qishlog`ida tashkil etilgan shoiring uy-muzeyi, shoir o`qigan muktabga yuhshtirilgan sayohat, u yerdagи tabiat manzarasi delegatsiya a`zolarda ajoyib taassurot qoldirdi.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, akademik mobillik, mamlakatlarning ilmiy potensialini yuksalishiga, ilmiy-fanni rivojlangan xorijiy mamlakatlarining yutuqlari asosida rivojlanishiga, zamon bilan hamnafas mutaxassislarni yetishtirishga zamin hozirlaydi.

**Zebuniso Shodmonova,
Urologiya kafedrasи mudiri, dotsent**

26 iyun – Butunjahon giyohvandlikka qarshi kurash kuni

Inson hayotda yashar ekan, yaxshilikka intilib, yomonlikdan qaytib yashashga harakat qiladi. Lekin "yaxshilik" va "yomonlik" tushunchalariga har kim har xil ta'rif beradi. Hayot ezgulik bilan go'zal. Ammo ba'zan ezgulikka yovuzlik ko'lanka soladi. «Asr vabosi» nomini olgan giyohvandlik insonning osuda hayotiga rahna solib, ongini o'ziga bo'yundiruvchi zahri qotildir. Bu shunday qurokki, o'z domiga ilintirgan odamni razolat dunyosiga yetaklaydi va bu jarayonda inson jamiyatdagi o'rnnini yo'qota boshlaganini anglamay qoladi.

Giyohvandlik – XXI asming global muammolaridan biriga aylanlib ulgurdi. O'rta asrlarda insoniyat hayotiga jiddiy xavf solgan vabo va o'lat kabi ofatlar, bugungi sivilizatsiya zamoniga kelib o'z o'mini giyohvandlik illatiga bo'shatib berdi, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, qanchalik qiyin bo'lmasin, biz yoshlar tarbiyasi bo'yicha o'zimizga xos va ta'sirchan, bugungi kunga hamohang usullarni izlab topishimiz kerak. Jondan aziz farzandlarimizni buzg'unchi va zararli g'oyalar, jinojatchilik, giyohvandlik, loqaydilik, ma'nnaviy qashshoqlik kayfiyatidan asrashimiz zarur. Sog'lom turmush tarzini olib borayotgan kishi bilib-bilmay bu ko'chaga kirib qolsa, o'zining tinch, farovon va baxtli hayotini qora zulmatga aylantirishi ayni haqiqat. Giyohvand kishi nafaqat o'ziga, balki yaqinlariiga ham to'xtovsiz azob beradi.

Undan tug'ilajak farzandlar esa ota-onasining xatosi oqibatida bir umrga majruhluk qismatiga mubtalo bo'lardilar. Zero, faqat sog'lom ota-onadangina sog'lom surriyod dunyoga keladi.

Sog'lom bola esa farovon kelajak demakdir. Ba'zan giyohvandlik qurbaniga aylanlib qolgan insonlarning qismatini ko'rib, ularga nisbatan nafrat, qahr va rahm tuyg'ularining uyg'onishi tabiiy.

Ularning quriyotgan daraxt misol umri evaziga ayrim qora niyati yovuz kimsalarning hamyonini to'imqoqda. Qiyofasi odam, qilmishi zulm bo'lganlarning qora og'uni voyaga yetmagan yoshlar orasida tarqatib, uni iste'mol qilishga targ'ib qilayotganiga jum qarab turib bo'lmaydi, albatta.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra dunyoda 500 milliondan ortiq odam giyohvandlik dardiga yo'liqqan. Uning aksariyat qismini 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil etmoqda. Buning oqibatida har yili 200 mingdan ortiq kishi hayotdan ko'z yumadi. Shu bilan birga, jahonda sodir etilayotgan jinojatlarning 57 foizi giyohvandlar hissasiga to'g'ri keladi.

Davlatimizning oqilona siyosati fuqarolar jamiyatining har tomonloma komil, sog'lom, olyjanob fazilatları, yuksak tafakkuri va ma'naviyati, ijtimoiy faoliigi bilan ajralib turadigan namunalı jamiyat bo'lishiga qaratilgan. Mana shu xalqchil siyosatga

Sog'lom turmush tarzi ko'p qirrali
tushunchadir, ammo uni tanani mustahkamlash va patologiyalarning rivojlanishining oldini olishga qaratilganligini tushunish muhimdir. Buning uchun siz sog'lom ovqatlanishni, mo'tadil jismoniy faoliyatni birinchini o'ringa qo'ying, uyqusizlik va dam olish rejimlariga qat'iy riyoja qiling, yomon odatlarni tashlab, fikr va his-tuyg'ularingizni nazorat qilishni o'rganing. Ekologik vaziyat ham bir xil darajada muhim, biroq har doim uni o'zgartirish imkoniyati yo'q.

NEGA SOG'LOM TURMUSH TARZINI OLIB BORISHINGIZ KERAK?

Sog'lomlik va sog'lom turmush tarzi odamga barcha faoliyat sohalarida va uning harakatlarda yordam beradi. Tanaga nisbatan bunday yondashuv tufayli inson o'zi bilan muammolarga duch kelmaydi va buning o'rniqa yuqori intellektual qobiliyat va yaxshi kayfiyatni oladi. Sog'lom turmush tarzining foydali ma'nosи - ravshan va qiziqarli bo'ladi. Shubhasiz, ularning sog'lig'i uchun qo'rquvning kamayishi yuzaga keladi.

SOГ'LOM TURMUSH TARZINI TARG'IB QILISH

asoslangan davlatimiz barcha turdag'i giyohvandlikka qarshi izchil kurash olib bormoqda.

Yoshlarning bo'sh vaqtini bekor o'tkazishi, ota-onalarning farzandini haddan tashqari erkalatishi va ular tarbiyasiga beparvoligi yuqorida keltirilgan salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Farzandning sog'-salomat dunyoga kelishi, unib-o'sishi, jamiyatda o'z o'miga ega bo'lishi, eng avvalo, oila boshliqlariga bog'liq. Bu borada mehribon ota-onalar zimmasiga katta mas'uliyat yu k l a n a d i .

Demak, "Asr vabosi" deb a t a l u v c h i giyohvandlikning oldini olish, unga qarshi kurashishga

faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi organlar emas, balki jamiyatdag'i har bir inson mas'ul.

Maqsad esa, dunyoni giyohvandlik balosidan saqlash, insoniyat salomatlagini asrashdir. Giyohvandlik - inson ma'naviyatiga zid bo'lgan, uning ijtimoiy-ruhiy holatini butkul izdan chiqaradigan g'oyat xatarli illat, bedavo xastalik.

Jinojatchilikka qarshi kurashishga tegishli eng o'tkir va dolzarb muammolardan biri giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish muammosidir. Bugungi kunda giyohvandlik yer shari aholisining istisniosiz barcha qatlamlarini o'z domiga tortib oldi desak, mubolag'a bo'lmasa kerak.

Yaqin va O'rta Sharq, Osiyo davlatlari haqli ravishda giyohvandlik eng avj olgan "markazlar" hisoblanadi. BMT ma'lumotlariga ko'ra, opium xom ashyosining uchdan ikki qismi Tailand, Birma va Laosga to'g'ri kelmoqda. Lotin Amerikasi mamlakatlari ham giyohvandlik moddalar xom ashyosining tarqatilishida katta ulushga ega. O'tgan asming 1980-yillardan oxiridan boshlab, ushbu sohaga oid jinojatlar sonining ko'payishi sobiq SSSR, jumladan O'zbekiston Respublikasi hududida ham qayd qilina boshlandi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining hududi giyohvandlik vositalarini Rossiya Federsiyasiga va G'arbiy Evropa mamlakatlariiga yetkazib berish uchun tranzit hudud hisoblanadi.

saqlash har bir mamlakatda ustuvor vazifa bo'lishi kerak. Bu ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik sohalarda davlatning rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Sog'lioni saqlash madaniyatini shakllantirish, zamonaliv odamlarga juda ko'p vaqt va energiya beriladi. Xalqning salomatligi nafaqat sog'lom turmush tarziga bog'liq bo'lib, atrof muhit xavfsizligi, mehnat sharoitlari va sog'lioni saqlash tizimini rivojlanish ham muhim rol o'ynaydi.

Sog'lom turmush tarzi va uning tarkibiy qismalari insoniyat sog'-salomat bo'lishni xohlaydi, ammo ba'zilari harakatga kirishadi, boshqalari esa hech narsa qilmaydi. Sog'ligimiz ahvoliga qanday ta'sir qiladi:

- taxminan 50% - sog'lom turmush tarzi;
- taxminan 20% - atrof-muhit;



GIYOHVANDLIK – ASR VABOSI


Insoniyat anchadan beri giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning noqoniy aylanishiga qarshi kurashishning samaraliroq ijtimoiy, siyosiy, tibbiy va huquqiy usullarini topishga urinib kelmoqda.

Aksariyat mamlakatlarda giyohvandlik vositalarining g'ayriqonuniy tayyorlanishi va iste'mol qilinishining tez sur'atlarda ko'payib borayotgani so'ngi o'n yilliklardagi eng xavfli tendensiyalardan bittasidir. Giyohvandlik moddalarining butun dunyo bo'ylab noqonuniy tarzda tarqatilayotgan umumiy hajmidan 10-15 foizi huquqni muhofaza qiluvchi idoralar tomonidan aniqlanmoqda xolos.

Giyohvandlikka bog'liq vaziyatning og'irlashib borayotgani barcha mamlakatlarning aksariyati – 158 ta davlatni (dunyo mamlakatlarning 80 foizi) narkotiklarni nazorat qilish bo'yicha xalqaro konvensiyalarga birlashishga undadi.

Shu munosabat bilan huquqni muhofaza qiluvchi idoralaridan giyohvandlik moddalarining noqonuniy aylanmasini aniqlash bo'yicha aniqroq ishlarni tashkil etishni talab etadi.

SamDTU Teri-tanosisil kasalliklari kafedrasini ass: M.M.Tolibov RINIATM Samarcand viloyati mintaqaviy filiali vrach narkologи: D.Z.Kosimova



SOГ'LOM TURMUSH TARZI

- 20 foizdan ozrog'i - genetik moyillik;
- 10% gacha - sog'lioni saqlash tizimi.

Sog'lom turmush tarzining bunday asoslarini va tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- odatdagidek mutlaqo rad etish;
- kunlik o'rtacha sog'lom ovqatlanish;
- faol dam olish;
- gigiena (shaxsiy va jamoat);
- his-tuyg'ularni doimiy nazorat qilish;
- intellektual rivojlanish;
- ma'naviy va ijtimoiy farovonlik.

SOG'LOM TURMUSH TARZI UCHUN KUN TARTIBI

Rejim sog'lom turmush tarzi uchun zarur shartdir. Biroq, soatning odatiy ➤

SHIFOKOR SO`ZI

**“KITOB ILM-U DONISHNING ASOSIDIR,
HAYOTNI YARATUVCHI MURABBIYDIR”**

10-iyun kuni universiteida “Kitob ilm-u donishning asosidir, hayotni yaratuvchi murabbiydir” ilmiy-amaliy konferensiya bo`lib o’tdi.

Konferensiyada universitet ma’muriyat, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, professor-o’qituvchilar va universitet talabalari hamda respublika tibbiy oly ta’lim muassasalari olimlari va talabalari onlayn tarzda ishtirok etishdi.

Konferensiya maqsadi yoshlarning bilim olishda ustozlar ko’magida tanlagan kasb yoki ilmiy sohaning rivojlanishida va o’z sohasiga oid kitoblardan foydalananib kasbini puxta egallashi bo’ldi.



Konferensiyanı universitet rektori, professor J.Rizayev ochib berib kitoblarni yoshlarni yetuk mutaxassis etib shakllanishidagi o’rni va ahamiyati, olygoh professor-o’qituvchilar tomonidan chop qilinayotgan o’quv adabiyotlarning dolzarbligi va har bir chiqadigan ilmiy asar Universitetni dunyoga nufuzini yanada oshirishga xizmat qilishini ta’kidlab o’tdi.

Konferensiya Axborot-resurs markazi direktori D.Mansurova markaz haqida, o’quv yili davomida o’qituvchilar tomonidan yaratilib ARMga topshirgan adabiyotlar haqida ma’lumot berdi. Universitet professor-o’qituvchilar tomonidan yaratilgan 26 ta eng yangi zamonaviy darslik, o’quv qo’llanmalar hamda monografiyalar taqdimoti mualliflar tomonidan o’tkazildi.

Tadbir doirasida kitobxon talabalar va uchun kitob-savdo yarmarkasi ham tashkil etildi.

Mualiflar va talabalar o’tasida qiziqarli savol-javoblar bo’ldi. Anjuman mualliflarning kitoblari respublikada bo’yicha taqdim etilgani juda ma’qul kelib, kelgusida yana shunaqa tadbirlar o’tkazilishi kelishib olindi.

rejasini biroz boshqacha ko’rish mumkin, eng muhim uyqu vaqtini to’g’ri aniqlash - kamida 7-8 soat bo’lishi kerak.

Kuchini tiklash va tanada muvozanatni saqlab qolish uchun siz dam olish bilan muqabil bo’lishi kerak. Jismoniy tarbiya uchun soatiga bir necha daqiqa sarflang, peshin vaqtida toza havoda yurib boring. Sportni o’ynashni unutmang. Buning uchun eng yaxshi variantini tanlashingiz mumkin.

SOG’LOM TURMUSH TARZI UCHUN TO’G’RI OVQATLANISH

HLS va to’g’ri ovqatlanish ajralmas tarkibiy qismlardan iborat. Och qolish tirik organizmning eng muhim instinktlaridan biridir. Butun dunyodan kelgan nevrologlar quyidagi xulosaga kelishdi:

1. Kuniga to’rtta taom - sog’liq uchun ideal variant. 2. Har bir ovqathing o’z vaqtin bo’lishi kerak. 3. Ertalab va tushlikda, peshindan keyin meva, sabzavot, nordon surʼat mahsulotlarini isteʼmol qilish uchun go’sht, baliq istemol qilish lozim. 4. Keyinchalik choy va qahva ichimliklar saqlanib qolishi kerak.

SOG’LOM TURMUSH TARZI VA SPORT

Sog’lom turmush tarzi qoidalari sog’lom

Tadbirlar



“KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH – BARCHAMIZNING BURCHIMIZ”

3-iyun kuni universitetda professor-o’qituvchilar va talabalar ishtirokida “Korrupsiyaga qarshi kurashish – barchamizning burchimiz” mavzusida uchrashuv o’tkazildi.

Tadbirni Universitetni ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrasi mudiri A.Maxmudova ochib berib yig’ilishi dolzarbligi va ahamiyatini ta’kidlab o’tdi. Uchrashuvda ishtirok etgan mehmonlar — viloyat IIB mas’ul xodimi X.Sadullaev korrupsiya tushunchasi, uning amaliy ifodalanishi, mazkur illat bilan kurashishni dolzarbligi; korrupsiyaga qarshi kurash iqtisodiy jinoyatlarga qarshি kurash bo’limi xodimi D.Aliyev korrupsiya har qanday davlat va jamiyat rivojiga jiddiy salbiy ta’sir ko’rsatuvchi xavfli omil, barcha mamlakatlarga tahdid soluvchi murakkab ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hodisa ekanligi; Yoshlar ishlari bo’yicha SamDTU rektori maslahatchisi E.Aripov korrupsiya har qanday ko’rinishi jamiyatni halokat yoqasiga olib borishi, ta’lim va tarbiya jarayonida mazkur illat bilan kurashish eng dolzarb masala ekanligi, ta’lim sohasida ishlaydiganlar barchaga halollik namunasi bo’lmog’i lozimligi; universitet ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrasi k.o.q. Sh.Majidov korrupsiyani nazariy tomonlari, ilmiy-nazariy ta’rifi va u bilan kurashish borasidagi zamonaviy qonunchilik haqida tushunchalar berdilar.

Uchrashuv davomida O’zR DXX hamda Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi hamkorligida tayyorlangan “Ta’limdagi tamagirlik” deb nomlangan videorolik ham namoyish etildi.

Yig’ilish so’ngida universitet korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens-nazorat tizimini boshqarish bo’limi boshlig’i L.Xudoyarov so’zga chiqib, olgan tushunchalarni talabalar va xodimlar o’tasida targ’ib etishga chaqirdi.

ovqatlanish yoki yomon odatlardan voz kechishdan iborat. HLS ning ajralmas qismi sport, lekin bu barchani qabul qilish va rekord o’rnatishni bildirmaydi. Formani saqlash va organlar, terilarning erta qarishini oldini olish uchun jismoniy mashqlar zarur. Buning uchun juda mos keladi:

- suzish;
- velosipedda yurish;
- sayyoqlik safarlar;
- tennis.

HLS - YOMON ODATLAR

Sog’lom turmush tarzini shakllantrish yomon odatlardan xalos bo’lishga qaratilgan. Spirlli ichimliklar ichish va chekish eng keng tarqalgan. Ular nafaqat giyohvandlikka uchragan kishiga, balki uning hamkorlariga ham zarar yetkazishadi. Ayniqsa, tamaki chekish xavflidir, chunki passiv sigaret chekuvchilar vujudi yomon odatlarda faol «mahbus» bilan zaharlanadi.

**SamDTU, bolalar kasalliklari propedevtikasi xodimlari:
dots. Jalilov A.X., PhD Xaydarova S.X.,
ass. Achilova F.A.**

5

BOLALARDA KAMQONLIK: KASALLIKNING OLDINI OLISHDA DASTLABKI CHORALAR NIMALARDAN IBORAT?

Yosh bolalarda kamqonlik muommasi ijtimoiy ahamiyatga ega. Bolaning to’g’ri rivojlanishi, tengdoshlaridan jismoniy va aqlan orqada qolmasligi uchun bu kasallikga befarq bo’lmasislik kerak.

Anemiya tashhisini qo’yish uchun qanday tekshirishlar o’tkaziladi?

Bolada kamqonlik belgilarini sezgan ota-onal, eng avvalo, qon tekshirishlarini amalga oshirish zarur. Tashhis qon tekshirishlarini, ya’ni eritrotsitlar va gemoglobin sonining ko’satgichlari orqali qo’ylidi. Agar gemoglobin miqdori 110 g/l dan, eritrotsitlar 3,5X 1012 g/l dan kam bo’lsa, anemiya yengil darajasi quyiladi. O’tacha anemiya quyidagi ko’satgichlari bilan belgilanadi: gemoglobin 90 g/l dan kam, eritrotsitlar 2,5X 1012 g/l gacha, og’ir darajadagi kamqonlik esa 70 g/l dan kam, eritrotsitlar 2,5X10 12 g/l dan kam bo’ladi.

Anemiyani belgilari:

- doimiy charchoq hissi
- nafas qisishi, diqqat pasayishi, injqliq
- teri rangini oqarishi, qo’llar va oyoqlar sovuq bo’lib, doimiy muzlaydi.

Parasteziya – sezgi patologiyasi bo’lib, birdaniga terida qichish, chumoli yurgandek bo’lishi, lab va tilni sezmay qolish holatlari kuzatilishi mumkin.

Yurak urishi tezlashishi, bosh aylanishi, boshini og’ishi (to’qimalarda kislорod yetishmovchiligi belgisidir).

Kamqonlikni davolash davrida nimalarga ahamiyat beriladi?

Bolada kamqonlikni yengil ko’rinishi kechayotgan bo’lsa, temir moddasiga boy bo’lgan ovqatlar va qo’shimcha vitaminlar beriladi. Qaytadan kamqonlik yuzaga kelmaslik uchun ushbu jarayonni to’xtatmaslik zarur. Parhezda mol go’shti, jigar, dukkakli mahsulotlar, dengiz mahsulotlari, yangi sabzavot va mevalar, ko’katlar o’rin olishi kerak.

Temir preparatlari va vitaminlar ko’rsatilgan dorimornlarni shifokor tayinlaydi.

Anemiyani oldini olish maqsadida qanday tavyisalar berish kerak?

Temir tanqisligi kamqonligining asosiy sababi ekanligini hisobga olsak, to’g’ri ovqatlanishning ahamiyati juda katta. Bola tug’ilmasidanoq oldinroq homilador ayollar sog’lom ovqatlanishga, yetarlicha uxlab dam olishga erishishi zarur.

Ilk 6 oyligida ona sutiga qo’shimcha ovqatlar qo’shib borish kerak. Katta yoshdagagi bolalar uchun turli xil ovqatlanish balansini tashkil qilish zarur. Hayvonat mahsulotlariagi temir 2-3 barobar ko’p so’riladi, o’simlik mahsulotlariiga nisbatan. Ovqatlanish vaqtida ko’k choy ichmaslikga etibor berish kerak, chunki choy tarkibidagi ba’zi moddalar temiri so’rilishini pasaytiradi. Ayollarni 95% ko’p choy ichishadi. Chaqaloqlamni iloji boricha ochiq havoda bo’lishi va quyosh vannalarini qabul qildirish muhimdir. Agar bu tadbirlar yetarli bo’lmasa, vitamin-mineral komplekslari va tarkibida temir moddasi saqlovchi preparatlardan foydalish mumkin.

Yana shuni ta’kidlash kerakki, temiri organizmda yaxshi so’rilishi uchun S vitaminini zarur. Bular ko’pincha quyidagi mevalarda ko’p bo’ladi: na’matak, malina, smorodina, limon va ko’katlarda.

Sut, choy va kofe kabi mahsulotlar esa temir moddasini so’rilishini pasaytiradi.

Shunday qilib, kamqonlikni hayot sifatini yomonlashtirishi, immunitetni pasaytirishi va boshqa kasalliklarga ko’proq moyillik tug’dirishini hisobga olgan holda bolalarda kamqonlikni vaktida oldini olish va davolashga katta ahamiyat berish lozim.

**Gulsara Kudratova, Zilola Xolmuradova
Davolash fakulteti Pediatriya kafedrasи**

“AVITSENNА” JAMOASI FARMAKOLOGIYA BO'YICHA XALQARO OLIMPIADA G'OLIBI!



Universitet farmakologiya kafedrasi mudiri dos. S.Yuldashev boshchiligidagi tayyorlangan davolash fakultetining 3-kurs talabalaridan iborat “Avitsenna” jamoasi S.D.Asfendiyarov nomidagi Qozog'iston milliy tibbiyot universiteti (Olma-ota, Qozog'iston Respublikasi) tomonidan o'tkazilgan talabalar Xalqaro onlayn-olimpiadasida ishtirot etdi.

Farmakologiya fani bo'yicha o'tkazilgan Xalqaro talabalar olimpiadasida qatnashgan SamDTU “Avitsenna” jamoasi, 17 ta jamaa ichida faxrli III-o'rinni egallab, kubok, diplomlar hamda tashakkurnoma bilan taqdirlandilar.

G'olib jamaa va ustozlarini erishilgan yuqori natija bilan tabriklaymiz va yangi muvaffaqiyatlar tilaymiz!



SamDTU teatr-studiyasi “Yilning eng faol talabalar teatr studiyalari” tanlovi g'olibi

2022 yil 2-iyun kuni Xorazm viloyati Urganch shahrida O'zbekiston Respublikasini Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, Madaniyat vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi tomonidan tashkil etilgan Oliy ta'lif muassasalari o'rtasida o'tkazilgan “Yilning eng faol talabalar teatr-studiyalari” III-min-taqqaviy bosqichi bo'lib o'tdi.

Mazkur tanlovdan, oldinroq mintaqaviy bosqichda g'alaba qozonib Urganchga yo'llanmani qo'lg'a kiritgan Samarqand davlat tibbiyot universitetini “Ibn Sino izdoshlari” teatr-studiyasi jamoasi ishtirot etdi. Universitet talabalarini tomonidan taqdim qilingan “Renessans” nomli tarixiy dramasi barcha ishtirokchilar tomonidan iliq qabul qilindi.

Tanlovnii yakuni bo'yicha universitet teatr-studiyasi “Milliy an'ana va qadriyatlarini tarannum etgani uchun!” nominatsiyasi g'olibiga sifatida e'tirof etildi va diplom bilan taqdirlandi.

Universitet teatr-studiyasi jamoasini ushbu yuksak mukofot bilan tabriklaymiz va yangi zafarlar tilaymiz!

kafedrasi katta o'qituvchisi Sh.F.Majidov);

“Falsafa” yo'naliishi bo'yicha — II-o'rinni tibbiy pedagogika fakulteti 3-kurs talabasi Madinabonu Shamsiddinova (ilmiy rahbar: gumanitar-ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri PhD A. Maximova);

“Pedagogika” yo'naliishi bo'yicha — III-o'rinni tibbiy pedagogika fakulteti 3-kurs talabasi Farxunda Axmadova (ilmiy rahbar: “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o'qituvchisi F. Norbo'taev).

Tashkilotchilar g'oliblar va ularning ustozlariga ishtirot uchun minnatdorchilik bildirib, tegishli diplomlar bilan taqdirlashdi.

Barcha g'olib talabalarimiz va ularning ustozlarini erishgan yuqori natijalar bilan tabriklaymiz va yangi omadlar tilab qolamiz!

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti negizida Respublika tibbiyot va farmatsevtika oliy o'quv yurtlari o'rtaida “Tibbiyot OTMrida ijtimoiy-gumanitar fanlar integratsiyasi” mavzusida talabalarning Respublika onlayn olimpiadasi bo'lib o'tdi.

SAMDTU TALABALARI — RESPUBLIKA OLIMPIADASI G'OLIBLARI

Olimpiadada respublikamizning barcha tibbiyot oliy o'quv yurtlaridan 30 dan ortiq talabalarini, shu jumladan universitetimiz talabalarini ham ishtirot etdilar.

Olimpiadaning tantanalı ochilishida ToshPTI o'quv ishlari bo'yicha prorektori Qahramon Xaitov, TDSI ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori Qahramon Shomurodov, ToshPTI gumanitar fanlar kafedrasi mudiri Shohista Shoyimova va boshqalar qutlov so'zlari bilan murojaat etib, barcha ishtirokchilarga musobaqada muvaffaqiyatlar va omadlar tiladilar.

Respublika talabalar olimpiadasi zamонави ижтимои-гуманитар билимларнинг 4 ta yo'nalishi — “O'zbekistonning eng yangi tarixi”, “Falsafa”, “Pedagogika” va “Psixologiya” bo'yicha o'tkazildi. Olimpiada davomida ishtirokchilar ikki bosqichda: test topshiriqlarini yechish va blits-so'rovda o'zaro bellashdilar. Talabalar olimpiadasida



Samarqand davlat tibbiyot universiteti vakillari g'oliblik uchun kurashda yaxshi natijalar ko'rsatdilar.

Respublika talabalar onlayn olimpiadasi natijalariga ko'ra, tashkiliy qo'mitani qarori bilan Samarqand davlat tibbiyot universiteti talabalarini quyidagi sovrinli o'rirlarni qo'lg'a kiritdilar:

“O'zbekistonning eng yangi tarixi” yo'nalishi bo'yicha — II-o'rinni davolash fakulteti 1-kurs talabasi Toxirjon G'ofurov (ilmiy rahbar: gumanitar va ijtimoiy fanlar

SHIFOKOR SO`ZI

“Oila mustahkamligi sirlari” intellektual viktorinasi

Universitet xotin-qizlar maslahat kengashi tomonidan Akademik litsey talabalar turar joyida universitet talaba qizlari o’rtasida erta va qarindoshlar o’rtasidagi nikohlarning oldini olish, oila mustahkamligini ta’minlash doirasidagi bilimlarni boyitish maqsadida “Oila mustahkamligi sirlari” mavzusida intellektual viktorina o’tkazildi.

Universitet xotin-qizlar kengashi maslahat raisi G.Xudayberdieva oilada tibbiy madaniyatni shakllantirish, oila madaniyatini yuksaltirish, oilalar farovonligiga erishish yo’lida olib borilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati to’g’risida to’xtalib o’tdi. Stomatologiya fakulteti dekan maslahatchisi A.Kamalova va tyutor M.Akabaevlar viktorinani olib borib o’quvchi-qizlarni erta va qarindoshlar o’rtasidagi nikohlarning salbiy oqibatlari, reproduktiv salomatlik, oila mustahkam va baxtli bo’lishi omillari to’g’risidagi fikr-mulohazalarini baholadilar.

Viktorina ko’tarinki ruhda, bahs-munozaralarga boy o’tdi. Yakunida eng to’liq va to’g’ri javoblarni muallifi g’oliblikni qo’lga kiritib tashkilotchilar tomonidan taqdirlandilar.



“1-iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni”

munosabati bilan Samarqand viloyat ko’p tarmoqli bolalar

shifoxonasida “Bolalarga bering dunyoni” shiori ostida o’tkazilgan bayram va xayriya tadbirida universitet xotin-qizlar kengashi a’zolari hamda “Qizlarjon” klubi faollari ham ishtirok etdilar.

Tadbirda so’z olgan xotin-qizlar maslahat kengashi raisi G.Xudayberdiyeva sog’lom avlod kelajagimiz poydevori ekanligi, bolajonlarimizning salomatligini mustahkamlash yo’lida yurtimizda olib borilayotgan keng ko’lami islohotlar, Universitetda olim va olimalarining bu sohada qo’shayotgan xossalari to’g’risida fikrlar bildirgan holda bolajonlarni bayram bilan tabrikldi. Qizlarjon klub faollari o’z dasturlari bilan chiqishlar qilib bolajonlar qalbiga quvondi baxsh etishdi.

Universitet 1-son otorinolaringologiya kafedrasи mudiri N.Xushvakova boshchiligidagi kafedra a’zolari “Bolalar asab kasalliklari” bo’limiga yosh bemorlarni sog’lomlashtirish uchun trenajyor uskunasi sovg’a qilindi.

Bolajonlarga bayram sovg’alari tarqatilishi va tashkillashtirilgan konsert dasturi bolalarga haqiqiy bayram kayfiyatini olib keldi.

Faoliyat

7



ERKINJON TURDIMOV FAOL TALABALARNI TAQDIRLADI

“Yangi O’zbekiston yoshlari, birlashaylik!” shiori ostidagi festival doirasida universitetda ham turli tanlovlardan, intellektual o’yinlarni, ko’rgazmali chiqishlari va sport musobaqalari o’tkazildi.

Universitetda o’tkazilayotgan gala-kontsertda viloyat hokimi Erkinjon Turdimov ham ishtirok etib, tanlov g’oliblarini taqdirladi va universitet bitiruvchilarini tabrikldi.



“BOLALARGA BERING DUNYONI” SHIORI OSTIDA BAYRAM TADBIRI



OCHIQ MA'RUZA E'LONLARI

SamDTU urologiya kafedrasida 2022 yil 26 iyun kuni urologiya fanidan davolash fakultetining 437-440-guruh talabalari uchun «Prostata bezining xavfsiz giperplaziyasi etiopatogenezi, klinikasi, diagnostikasi va davolash usullari» mavzusida ochiq ma'ruba o'tkaziladi.

Ma'ruzachi: Urologiya kafedra mudiri, dorts. Z.Shodmonova

Manzil: RSHTYOIM SFning Urologiya kursining xonalardiga (7-qavat).

Taklif qilinganlar: Davolash fakulteti 437-440 guruh studentlari, klinik ordinatorlar, magistrler, bo'lim vrachlari, viloyat urologiya ilmiy jamiyatiga a'zolari, o'quv bo'limi, dekanat a'zolari va barcha qiziquvchilar!

SamDTU «Ichki kasalliklar propedevtikasi» kafedrasida 2022 yil 30-iyun kuni ichki kasalliklar propedevtikasi fanidan soat 08:00da kafedraning ma'ruzalar zalida pediatriya fakultetining 6-oqim studentlari uchun ochiq ma'ruba bo'lib o'tadi.

Mavzu: «Elektrokardiografiya. Yurak qon-tomir tizimi kasalliklarida EKG o'zgarishlari»

Ma'ruzachi: Ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrası mudiri, t.f.d. Saodat Xabibovna Yarmuxamedova

Manzil: Ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasining ma'ruzalar zali.

Taklif qilinganlar: Pediatriya fakulteti 6-oqim studentlari, klinik ordinatorlar, magistrler, bo'lim vrachlari, o'quv bo'limi va barcha qiziquvchilar.

SamDTU davolash fakulteti 3-son akusherlik va ginekologiya kafedrası ochiq ma'ruba o'tkazadi.

Mavzu: «Гемолитическая болезнь новорожденных. Резусная иммунизация».

Ma'ruzachi: PhD dots: N.Shavazi

Ekspertlar: 1-son akusherlik va ginekologiya kafedrası professor o'qituvchisi N.Zakirova.

1-tug'ruq kompleksi bosh vrachi V.Kim.

Sana: 30.06.2022. Soat 10:05da

O'tkazilish joyi: Davolash fakulteti 3-son akusherlik va ginekologiya kafedrası ma'ruba zali

Taklif qilinganlar: MBBS 6-kurs talabalari.

Akusherlik va ginekologiya kafedralari va dekanat xodimlari, klinik ordinatorlar va magistrler.

TA'ZIYA

Samarqand davlat tibbiyot universiteti ma'muriyati va kasaba uyushma qo'mitasi universitet urologiya kafedrası assistenti Nurullo Boboqulovga onasi Shahribonu Tosheva hamda akasi Nasillo Boboqulovning vafot etganligi bilan chuqur ta'ziya ishor etadi.



YUQORI KURS TALABALARI BILAN OCHIQ DARSLAR

Joriy yilning 26-aprel kuni universitet 4-bosqich davolash ishi fakulteti talabalari ishtirokida akusher ginekologiya kafedrası tomonidan ochiq dars tashkil etildi.

“Homiladorlikning birinchi va ikkinchi yarmidagi qon ketishlar” mavzusida bo'lib o'tgan ochiq darsda bo'lajak tibbiy kadrlarga bilim -ko'nikma hamda tushunchalar berib o'tildi.

Köpgina homilador ayollarda homiladorlik boshlanishi bilan ya'ni birinchi trimestr davomida qon ketishi va qonli dog'lar kuzatiladi. Tibbiy jihatdan uni baholash juda muhim ahamiyatga ega. Shifokorlar birinchi uch oylikda qon ketish sabablarini turli tahlil va tekshiruvlar natijasida aniqlashlari mumkin. Ular homiladorlikda qon ketish sababini aniqlaganlardan so'ng davolash va buni boshqarish yo'llarini ishlab chiqishadi.

Shuningdek, 28-aprel sanasida kasbiy ta'lim fakulteti 5-bosqich talabalariga ham AMK bachadondan anomal qon ketishi mavzusida ochiq dars bo'lib o'tdi. O'tkazilgan darsdan maqsad talabalar bilimini baholash hamda ularga mavzu yuzasidan chuqurlashtirilgan ma'lumot berishdan iborat. Talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollarga atroficha javob oldilar.

BITIRUVCHILARNI MUTAXASSISLIK LARGA JALB QILISH BO'YICHA UCHRASHUV

2022-yil 6-iyun kuni universitetda bitiruvchi kurs talabalari orasida kelajakda o'z kasbini tanlash maqsadida ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan mutaxassisliklarga yo'naltirish bo'yicha uchrashuv o'tkazildi.

Marketing va talabalar amaliyoti bo'limi tomonidan tashkil qilingan uchrashuv bitiruvchilarni gematologiya va transfuziologiya, pulmonologiya, allergologiya va klinik immunologiya, reabilitologiya, neyroxiurgiya, sud tibbiyot ekspertizasi, atalogik anatomiya, ftiziatriya, mehnat gigiyenasi yo'nalishlariga qiziqishini oshirish hamda vakant mutaxassisliklar o'mni bo'ldi.

Uchrashuvni ko'zlagan maqsadi va kutlayotgan

natijalari haqida davolash fakulteti dekani o'rnbosari Tolib Nabiiev tushuntirdilar. Tegishli kafedra mudirlari chiqishlar qilib hozirgi kunda dolzarb va ijtimoiy jihatdan muhim bo'lgan mutaxassisliklar haqida batafsil tushuntirishlar berdilar, bitiruvchilarni tegishli fan sohalari bo'yicha klinik ordinatura va magistraturaga kirishga va xalqiga xizmat qilishga chaqirdilar.

Uchrashuv jonli tarzda o'tkazildi, ishtirokchilar barcha berilgan savollariga javoblar oldilar.



Tahririyat raisi:
J.A. RIZAYEV

Bosh muharrir:
E.S. TANGIROV

Tahrir hay'ati:
G.U. LUTFULLAEV,
S.A. KARABAEV,
A.A. AXMEDOV,
J.F. KADIROV,
B. E. TO'XTAROV,
F. DAMINOV.

SHIFOKOR SO'ZI

Nashr uchun mas'ul:
S. Halimov

Operator va sahifalovchi:
A. Amonov
Fotoimuxbir:
O. AXMEDOV

Gazeta Samarqand viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 18.01.2007 y. 09-33 raqami bilan ro'yxatga olingan.
INDEKS: 5539

MANZIL: Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi 18-uy.
Tel: (99866) 233-09-76 Faks: (99866) 233-71-75
e-mail: shifokor@samti.uz, sammi@sammi.uz

Gazeta har oyda bir marta to'liq rangli shaklda chop etiladi va bepul tarqatiladi